

KAFEDRANING O'QUV VA O'QUV-USLUBIY ISHLARI

Kafedrada 2,3,4,5-kurs talabalari ta'lim oladi. 2-kurs "Oliy hamshiralik ishi" yo'nalishi talabalari, "Nerv kasalliklarida hamshiralik ishi," "2-kurs davolash ishi" ta'lim yo'nalishi talabalari "Sog'lom turmush tarzi" fanidan, 2-kurs "Xalq tabobati" yo'nalishi talabalari "vareologiya" fanidan bilim oladi.

3-kurs tibbiyot-profilaktika yo'nalishi talabalari "nevrologiya va tibbiy genetika," "xalq tabobati," "sog'lom turmush tarzi," "fizioterapiya" fanlarini o'rganadi.

4-kurs stomatologiya, medikoprofilaktika va tibbiy-biologiya yo'nalishi talabalariga "nevrologiya" fani o'tiladi.

5-kurs "pediatriya" yo'nalishi talabalariga "bolalar nevrologiyasi" fani o'rgatiladi.



Darslar belgilangan tartibga muvofiq me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi. (malaka talabi, o'quv rejasi, namunaviy reja va h.k.)

Talabalarga sharoit yaratish maqsadida o'qitiladigan fanlar bo'yicha ma'ruzalar banki tayyorlangan, Hemis platformasiga zarur darsliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik qo'llanmalar va h.k. joylashtirilgan.



Kafedraning tajribali professor-o'qituvchilari har yili institut tomonidan tasdiqlangan reja asosida o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni nashr etadi. Eng so'nggi ilmiy adabiyotlar, darsliklar bilan ta'minlanish yuqori darajada.